



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: **Uzbek**, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'tkir Hoshimovning "O'zbeklar" hikoyasida milliylik masalasi

Hamroaliyeva Gulnoza Dilshodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "O'zbeklar" hikoyasidagi milliylik masalasi tahlil qilinadi. Asarda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, ezgulik, saxiylik, birdamlik kabi insoniy xususiyatlar ochib beriladi. Muallif asarda qishloq hayotini hikoya qilish orqali xalqning ezgu hislatlari, insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, chidam va bardosh kabi fazilatlarni tasvirlagan. Bir so'z bilan aytganda, bu hikoya o'zbek adabiyotida o'zbeklarning o'ziga xos obrazini yaratgan.

Kalit so'zlar: milliylik, qadriyatlar, bardoshli xalq, oqibat, ezgulik.

Abstract: This article is based on O'tkir Hoshimov's "O'zbeklar". This issue of nationality in the story is analyzed. The work reveals the national values of the uzbek people, such as kindness, generosity, and solidarity. By telling the story of rural life in the work, the author describes the noble qualities of the people, such as kindness, patience, and endurance among people. In a word, this story created a unique image of the uzbeks in the uzbek literature.

Keywords: nationality, values, resilient people, destiny, goodness.

O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotining zabardast vakili va realist yo'nalishning yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. U turli yo'nalishda turlicha asarlar yaratgan. Ulardan biri "O'zbeklar" hikoyasidir. Asar odamiy hislatlar bilan uyg'unlashganligi, milliylik targ'ib etilganligi bilan ajralib turadi. Asardagi Otinoyi obrazi ham, uning bittagina o'g'li, kelini va barcha mahalla ahli asar rivojida insonlarning hislatlarini, yaxshi-yomon tomonlarini, hayotning ma'nosi nimadan iborat ekanligini ko'rsatuvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Mahalla ahlining katta-kichigi Otinoyi obrazi atrofida birlashadi. avaylash masalasi dolzarb hisoblanadi. O'zbek xalqining turmushi, urf-odatlar, ularning ichki dunyosi va qiyinchiliklarida namoyon bo'ladigan ulug'vorlik boshqa xalqlarning diqqatini o'ziga tortishi tabiiy. Muallif asarni hikoya qilar ekan, hikoyadagi har bir jabhada o'zbek xalqining soddaligi, bolalarga bo'lgan mehri, bir-biriga bo'lgan oqibatning mustahkamligi, ona tomonidan farzandiga bo'lgan e'tibor va fidoiylilik hislatlarini asarga singdirib boradi. Shu o'rinda Belinskiyning fikrini aytib o'tishimiz joiz: "San'atkor o'z asarida insonni aks ettirar ekan, o'sha inson ko'lanka emas, balki jonli





odamning o'zi bo'lishi kerak. U jismoniy tuzilishga, xarakterga, axloqqa, o'z odatiga, xullas, uni hayotdagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi barcha individual xossalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, u muayyan millatga va ma'lum tarixiy davrga mansub bo'lmog'i darkor. Negaki biror millat yoki xalqqa tobe bo'lmagan inson haqiqiy inson emas". Modomiki xalq va uning milliyligi, qadriyatlar shunchalik muhim ekan, muallif ularni o'z asarida aks ettirishi, uning chuqur mahorati va qobiliyatini ko'rsatadi.

Asardagi qisqa parcha orqali hikoyaning asl mohiyati bilan tanishamiz:

"Mahallada qaysi kampirni uyidan topolmasangiz, Otinoyinikiga boravering. Uning uyi boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy, ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa uniki shifer. Hammaning tomida televizor antennasi bor, Otinoyinikida yo'q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum bo'ladi. Keyin bir mahalla xotinning gungur-gungur suhbatini, bolalarning qiy-chuvini eshitasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonning isi yuzingizga uriladi." Ushbu o'rinlarda aytib o'tilgan pastak uy, tut daraxti, rayhon isi, ayollarning qiy-chuvi so'zlari orqali xalqning o'ziga xos bo'lgan sifatlari ko'rsatib berilgan.

O'zbeklarning bolajon xalq ekanligini Otinoyining uyida shoxlik qilib daraxtga chiqqan bolalarga aytgan gapidan bilish mumkin: "Hoy uyingga bug'doy to'lgurlar, daraxtga chiqma, yiqilib tushsang yomon bo'ladi". Bu aslida mevani qizg'onish yoki o'z tinchligini o'ylash emas, hatto g'azablanganda ham bolalarning "uyiga bug'doy to'lishi"ni tilashdek "qarg'ish"i ayolning sof qalb egasi ekanligini ko'rsatadi. Avvallari mahallaning har bir farzandi umumiy barcha uchun farzand bo'lsa, hozirgi kunda odamlar o'z bolasidan boshqasiga e'tibor bermay qo'ydi. Otinoyining "qarg'ish"i ham, mahalla mehribonchiligi ham yo'qolib boruvchi odat tusiga aylanib qoldi. Oldin qo'ni-qo'shnilar bir hovlida yig'ilishib, sumalak qilishgan. Hozirgi odamlar individual hayot tarziga o'tib ketishmoqda. Hovli atrofi baland devorlar bilan o'ralgan, mahallalardagi ilqlik avvalgidek emas. Yangi qurilayotgan uylar orasida na tut daraxtlari bor, na rayhon isi bor. Odamlar orasida qo'shnihilik va samimiyat rishtalari asta-sekin zaiflashmoqda. Hozirgi mahallalarda ham do'stona munosabat bor, ammo ularni avvalgidek mustahkam deb bo'lmaydi. O'tgan asr o'zbek mahallasining jo'shqin hayoti bugun xotiralardagina qolayotgani mudhish hodisa, albatta.

O'zbeklarning hayoti mahalla bilan chambarchas bog'liq. Asarda mahalla hayoti hamjihatlik, o'zaro yordam, birlik, samimiylik kabi jihatlar bilan aks ettirilgan. Otinoyining uyi kichkina bo'lsa ham barcha mahalla ishlaritashkiliy





masalalar shu uyda maslahat qilinadi. Hatto Otinoyi vafot etganda ham har bir mahalladosh chin dildan, Otinoyining yaxshiliklarini qaytarish uchun beminnat xizmat qilishadi.

O'zbek xalqi tabiat bilan yaqin, uy atroflari gullar, daraxtlar va rayhonlar bilan bezatilgan bo'ladi. "Qator tizilgan osh rayhon, sada rayhon, oq rayhon, qora rayhon ko'zni quvontiradi". O'tkir Hoshimov mana shu milliy muhitni mohirlik bilan tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi o'zgarishlarni kuzatar ekanmiz hikoyada o'zbeklarning milliy qadriyatlari, insonlarning turli vaziyatlarning o'zini qay holatda tutishi, hayot qiyinchiliklariga qay tarzda javob bera olishi kabi fazilatlarning to'laligicha yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Aslida, qadriyatlar yo'q bo'lib ketmasligi kerak. Ularni asrash, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan jamoaviylik, mehmondo'stlik an'alarini davom ettirish – bugungi avlodning muhim burchidir. O'tkir Hoshimovning "O'zbeklar" hikoyasi bizga yo'qolib borayotgan qadriyatlarni eslatib turuvchi, asl o'zbekona hayot tarzi qanday bo'lishini ko'rsatuvchi manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'tkir Hoshimov. O'zbeklar hikoyasi. Toshkent. 2009.
2. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, O'zbekiston,2001.
3. Nosirov, A.N.(2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yoqubov's novels.
4. Sarimsoqov B. " Badiiylik asoslari va mezonlari". Toshkent,2004.

